

ARAB VA O'ZBEK TILLARIDAGI KELISHIK KO'RSATKICHLARINING
CHOG'ISHTIRMA VARIANTI

Shahobiddin Yo'ldoshev Suxrob o'g'li

Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti

Arab filologiyasi kafedrası

1-kurs talabasi, kunduzgi, 1-guruh

shahobiddinyuldoshev37@gmail.com

94 489 08 04

Ilmiy rahbar: Shirin Shorasulova

filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Annotatsiya: Ushbu maqola arab va o'zbek tillaridagi kelishiklarning o'xshash va farqli tomonlari haqida ilmiy asosda yozilgan. Maqolada bu ikki til kelishiklarining aynan mos tushadigan, qisman mos tushadigan va umuman mos tushmaydigan jihatlari keltirilgan, hamda mantiqiy xulosa ham mavjud.

Kalitso'zlar: kelishik kategoriyasi, tushum, qaratqich, muzakkar, muannas.

Tildagi kelishik kategoriyasi - ot yoki otlashgan so'zning fe'lga otga yoki boshqa bir turkum so'ziga munosabatini ifodalab, tobeligini ko'rsatuvchi shakillar tizimi³⁷.

Arab tilida kelishiklar uchta bo'lib (bosh, tushum, qaratqich) ularning hammasi morfologik ko'rsatkichga ega:

Bosh kelishik - damma

Tushum kelishigi - fatha

Qaratqich kelishigi - kasra.

O'zbek tilida oltita kelishik bor. Bular: bosh, tushum, Qaratqich, o'rin payt, jo'nalish va chiqish kelishiklari. Bu kelishiklardan bosh kelishik morfologik ko'rsatkichga ega emas.

Tushum kelishigi - ni;

Qaratqich kelishigi - ning;

O'rin payt kelishigi - da;

Jo'nalish kelishigi - ga;

Chiqish kelishigi - dan.

Arab tilida bosh kelishik noaniq holatda tanvin damma, aniq holatda esa damma bilan ifodalanadi.

Qaratqich kelishigi noaniq holda tanvin kasra, aniq holatda kasra bilan ifodalanadi.

Tushum kelishigi noaniq holatda tanvin fatha bilan, aniq holda esa fatha bilan ifoda etadi. Bundan tashqari to'g'ri ko'plik muzakkar va muannasdagi otlarning kelishik ko'rsatkichlari boshqacha ifodalanadi.

Bosh kelishik **حَالَةٌ الرَّفْعِ** (*holati roffi*) - faqat ega va ot-kesimlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

³⁷ Azim Haydarov-Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. B 49.

Qaratqichkelishigi- حَالَةُ الْجَرِّ (holatu jarri) ko'makchilardan keyin va moslashmagan aniqlovchini ifodalash uchun ishlatiladi³⁸.

Tushum kelishigi- حَالَةُ النَّصْبِ to'ldiruvchi va hollarni ifodalash uchun, bosh va qaratqich kelishigi ishlatilmaydigan hamma holatlarda ishlatiladi.

Holat	Kelishik	Muzakkarjins	Muannasjins	Kelishikqo'shimcha
noaniq	Bosh	كِتَابٌ	مَدْرَسَةٌ	– (un)
noaniq	Qaratqich	كِتَابِ	مَدْرَسَةٍ	– (in)
noaniq	Tushum	كِتَابًا	مَدْرَسَةً	– (an)
aniq	Bosh	الْكِتَابُ	الْمَدْرَسَةُ	– (u)
aniq	Qaratqich	الْكِتَابِ	الْمَدْرَسَةِ	– (i)
aniq	Tushum	الْكِتَابَ	الْمَدْرَسَةَ	– (a)

Arab tilida ot va sifatlarning asosiy qismi uch kelishikli so'zlar hisoblanadi va ular yuqoridagi jadval asosida turlanadi. Bular birlik va siniqko'plikdagi so'zlardir.³⁹

Fe'llar ham arab tilida kelishik ko'rsatkichiga ega. O'tgan zamon fe'llari (uch o'zakli fe'llar, ikkilangan, to'g'riga o'xshash, hamzali fe'llar) fathaga tugaydi.

Hozirgi zamon fe'llar aniq daraja (xabar maylida) damma va istak maylida esa fathaga tugaydi. Umuman, arab tilida kelishik kategoriyasi murakkab Grammatik kategoriyalar qatoriga kiradi. Otlar turli omillar ta'sirida kelishik ko'rsatkichlarini o'zgartirishlari mumkin.

Ikki tilning kelishik kategoriyalari o'rtasida aynan mos tushadigan jihatlarni quyida keltirib o'tamiz:

1) Ikki tilda ham kelishik kategoriyasi ot va otlashgan so'zlarning boshqa so'zlar bilan grammatik aloqasini ko'rsatadi va shu so'zning gapdagi vazifasini belgilaydi:

Masalan: Ustoz so'ziga –ning qaratqich kelishigi qo'shilsa, bu so'z boshqa so'zlar bilan birikma hosil qila oladi va gapda aniqlovchi vazifasida keladi. كِتَابُ الْأُسْتَاذِ (Kitaabu alustazi)- ustozning kitobi.

2) Har bir kelishikning o'z shakli, ma'nosi va sintaktik vazifasi bor.

Bosh kelishik- حَالَةُ الرَّفْعِ (holati roffi)

1. Ega va zifasida keladi: طُرُقُ الْبَابِ شَدِيدًا. (Turiqa albaabu shadiydan) – eshik qattiq taqilladi.

2. Gapda otkesim vazifasida keladi: هُمْ طُلَّابٌ (Hum Tullaabun) – ular talabadirlar.

3. Izohlovchi vazifasida keladi: الْحَدَّادُ أَحْمَدُ يَعْمَلُ فِي الْمَصْنَعِ (Alhaddaadu Ahmadu yamalu fi almasnai) – temirchi Ahmad fabrikada ishlaydi.

Qaratqich kelishigi- حَالَةُ الْجَرِّ (holatu jarri)

1. Gapda aniqlovchi vazifasida keladi: كِتَابُ الطَّالِبِ (Kitaabu attolibi) – talabaning kitobi.

Tushum kelishigi- حَالَةُ النَّصْبِ (holatu nasbi)

1. Asosan, fe'lga bog'lanadi va gapda vositasiz to'ldiruvchi bo'lib keladi: الْأُسْتَاذُ فَهَّمَ الْمَوْضُوعَ سَاجِلًا (Alustazu fahhama almavduu saahilan) – ustoz mavzuni oson tarzda tushuntirdi.

Demak, ikki til kelishik kategoriyalari o'rtasida o'xshashliklar mavjud.

³⁸ Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. Грамматик категория муаммосига доир айрим мулоҳазалар. ЎТА, 1998 йил, 6-сон, 22-26-бетлар.

³⁹ Ne'matillo Ibrohimov, Muhammad Yusupov "Arab tili grammatikasi"-Namangan 2009-yil 1-jild. 39-B.

Ikki tilning kelishik kategoriyasi o'rtasida qisman mos tushadigan jihatlarni sanab o'tamiz:

1) Sifat ikki tilda ham tushum kelishigida kela oladi, ammo o'zbek tilida bu otlashgan so'z bo'lib, gapda to'ldiruvchi bo'lib keladi, arab tilida esa holni hosil qiladi: *الْبَرِحَةَ لِأَسْتَاذٍ فَهَمْ هَذَا الْمَوْضُوعُ* (*Albarihata alustazu fahhama haza almavduua*) – ustoz bu mavzuni *bugun* tushuntirdi.

2) O'zbek tilida -dan, -ga, -da kabi qo'shimchalar ham kelishik ham so'z shaklida kela oladi, arab tilida faqat predloglar bilan, yani so'z shaklida ifodalanadi:

رَجَعَ الطَّالِبُ مِنَ الْمَدْرَسَةِ بَاطِرًا (*Raja attolibu min al madrasati baakiran*) – talaba maktabdan erta qaytib keldi.

الطَّالِبُ يَذْهَبُ إِلَى الْمَكْتَبَةِ (*Attolubu yazhabu ila maktabati*) – o'quvchi kutubxonaga ketyapdi.

فِي جُمْهُورِيَّتِنَا كَثِيرٌ مِنْ لِعُلَمَاءِ (*Fi jumhuriyatina kasiyrun min alulamaai*) – yurtimizda ko'p olimlar bor.

Demak, bir necha o'xshashliklarga qaramay bu tillar kelishik kategoriyalari o'rtasida qisman farqli jihatlarni ham mavjud.

Ikki til kelishik kategoriyalari o'rtasida umuman mos tushmaydigan jihatlarni sanab o'tamiz:

1) O'zbek tilida qaratqich va tushum kelishigi belgisiz shakilda kelishi mumkin, ya'ni bunday holatda bu kelishik qo'shimchalari tushib qoladi, ammo arab tilida bunday hodisa yo'q. Arab tilida matn harakatsiz holda bo'lishi mumkin, biroq bu kelishik belgisiz kelganligini ifodalaymaydi.

2) Olmoshlar o'zbek tilida kelishikda turlanishi mumkin, arab tilida esa bunday hodisa yo'q, chunki arab tilida olmoshlar yaxlit holda bo'ladi va kelishik qo'shimchalari bilan turlanmaydi.

3) O'zbek tilida bosh kelishik shakli maxsus affiksga ega emas, arab tilida ـ – (tanvin damma) yoki ـ – (damma) ni nisbatan bosh kelishikning ko'rsatkichi, deb hisoblasak bo'ladi.

Demak, arab tili som tillari oilasiga mansub bo'lib, uning grammatikasi boshqa som tillari oilasi grammatikasi bilan juda ko'p o'xshashliklarga ega. Klassik va zamonaviy arab tillari asosan bir xil grammatikaga ega bo'lib, arabcha so'zlashuv uslubi esa ko'p jihatdan farq qiladi⁴⁰. O'zbek tili esa oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga kiruvchi til. Demak, ikki til kelishik kategoriyalari o'rtasida o'xshashliklar umumiy bo'lib, bu tillar etimologiyasiga bo'liq emas. Yuqoridagi qiyosiy tahlillar esa bizga til kelishik kategoriyasini o'zlashtirishni osonlashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azim Haydarov - Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. B 49.
2. Нурмонов А., Шахобиддинова Ш. Грамматик категория муаммосига доирайрим мулоҳазалар. ЎТА, 1998 йил, 6-сон, 22-26-бетлар.

⁴⁰ Mogno_edu - Arab tili haqida 10 ta ma'lumot.

3. Ne'matillo Ibrohimov , Muhammad Yusupov "Arab tili grammatikasi"-
Namangan 2009-yil 1-jild. 39-B.
4. Mogno_edu - Arab tili haqida 10 ta ma'lumot.